

AYBSIZLIK PREZUMPSIYASINING AHAMIYATI VA AMALIY TAJRIBASI.



*Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy-odil sudlov fakulteti talabasi
Anvarov Behruz G'ulomjonovich*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolda O'zbekiston Respublikasida aybsizlik prezumpsiyasining ahamiyati va demokratik jamiyatda inson huquqlarini himoya qilishdagi o'rni tahlil qilinadi va ushbu prinsipning amaliy qo'llanishi, unga oid qonunchilik asoslari hamda mamlakatimizda bu tamoyilni yanada mustahkamlash uchun olib borilayotgan islohotlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, boshqa davlatlarda aybsizlik prezumpsiyasining ahamiyati va tajribasi bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *prinsip, ayb, prezumpsiya, aybsizlik prezumpsiysi, demokratik jamiyat, jinoyat huquqi, inson huquqlari.*

KIRISH:

Bugungi kunga kelib har bir demokratik jamiyatda inson huquqlari va erkinliklari dolzarb ahmiyat kasb etamoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 28-moddasi 1-qismida har bir shaxsning aybsizlik prezumpsiyasiga oid huquqi belgilangan va bu amaldagi milliy qonunlarning mazkur yo'nalishda rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, Jinoyat va Jinoyat prosessual kodekslarining tegishli moddalari yuqoridagi qoidaga ko'ra shakllantirilgan. Xususan, JKning qonuniylik prinsipi deb nomlangan 4-moddasida "hech kim sudning hukmi bo'lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas"ligi Konstitusianing 28-moddasida kafolatlangan aybsizlik prezumpsiyasiga asoslangan.

ASOSIY QISM:

Dastavval mavzuga chuqur kirishdan oldin bir nechta tushunchalar haqida mulohaza yuritadigan bo'lsak. Birinchi bo'lib "prinsip" so'ziga to'xtalib o'tamiz sababi "aybsizlik prezumpsiysi" jinoyat huquqining asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi. "**Prinsip**" so'zi lotincha "*principium*" so'zidan kelib chiqib, uning ma'nosи - "asos", "asosiy omil" kabi tushunchalarni anglatadi¹.

¹ Jinoyat-prosessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi // -T.: TDYU nashriyoti, 2021. 14-bet

Jinoyat huquqi nazariyasida “ayb” deganda shaxsning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) va uning oqibatlariga (qasddan yoki ehtiyotsizlik ko‘rinishidagi) bo‘lgan ruhiy munosabati tushuniladi.

“**Prezumpsiya**” atamasi lotincha – “taxmin” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ushbu tushunchaning etimologik ma’nosini aniqlashda, odatda, o‘xhash tushunchalarni aks ettiruvchi bir nechta fikrlarni topish mumkin. Shunday qilib, olimlarning fikricha, etimologik nuqtayi nazardan “prezumpsiya” quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1) oldindan foydalanish; 2) taxmin qilish, kutish; 3) e’tirozlarni erta rad etish, oldindan bilib olishdan, barvaqtlikdan saqlanish; 4) muddatidan oldin foydalanish; 5) preyuditsiya.

“Prezumpsiya” so‘zining ma’nosini qaysidir qoidani haqiqat sifatida qabul qilish ma’nosini beradi. “Aybi isbotlanmaguncha aybsiz” qoidasini birinchi bo‘lib **1700-yillarda** ingliz advokati **Uilyam Garrou** tomonidan ishlatalgan. Garrou shaxsning aybdorlik masalasi sudda sinchkovlik bilan o‘rganib chiqilishi kerak, deb hisoblagan.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, jinoyat prinsiplarining ayrimlari jinoyat ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida amal qilsa, ayrimlari esa uning ma’lum bosqichlarida amal qiladi. Qonuniylik, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarni muhofaza qilish, aybsizlik prezumpsiysi kabi prinsiplar jinoyat ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasiga binoan, “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Mazkur moddada yuqoridagi konstitusiyaviy qoida kengroq talqin etilgan, ya‘ni:

- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi;

- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas;

- aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Mazkur keltirilgan qonun normalari mamlakatimiz jinoyat prosessida jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining aybsizligi faraz qilinishi, isbotlanmagan aybi bo‘yicha oqlov hukmi chiqarilishi va sudlanuvchining to‘liq reabilitasiya qilinishini ko‘rsatadi.

Aybsizlik prezumpsiyasiga oid qoidalari birinchi navbatda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining *huquqlarini himoya qilishda* namoyon bo‘ladi. Mening fikrimcha, aybsizlik prezumpsiysi shaxsni noqonuniy yoki asossiz

ayblovlardan himoya qiladi hamda bir tarafdan qaraganda sudlarga jinoyat ishini adolatli ko'rib chiqish majburiyatini yuklaydi desak xato bo'lmaydi.

Shuningdek, *aybsizlik prezumpsiyasi inson qadr-qimmatini himoya qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi*, sababi ushbu qoida shaxsga aybi isbotlanmagunga qadar, uni jinoyatchi deb hisoblashdan saqlaydi. Bu prinsip inson qadr-qimmatiga hurmat bilan qarashni, uning obro'si va shaxsiyligini asrashga xizmat qiladi. Bundan tashqari aybsizlik prezumpsiyasi ayblanuvchiga va gumon qilinuvchiga o'zini himoya qilish hamda huquqiy yordam olish imkoniyatini yaratib beradi. Uning himoya huquqi to'laqonli saqlanib qoladi, bu esa adolat tamoyillarining asosiy kafolati hisoblanadi.

Ammo hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari rivojlanib, so'ngi yillarda global sezilarli o'zgarishlar va yangilanishlar olib kelmoqda. Barcha OAVning ochiq va erkin bo'lishi kerakligi to'g'risida bong uradiyu, ammo bir tarafda inson sha'ni qadr-qimmati masalasi doim so'roq ostida. So'ngi yillarda OAVlarda fuqarolarning aybsizlk prezumpsiyasi huquqi buzilishi, odatda, fuqarolarni ayplashda asossiz ma'lumotlar tarqatilish holatlari ko'paydi. Aybsizlik prezumpsiyasi har bir shaxsni, unga nisbatan sud hukmi chiqmaguncha aybsiz deb hisoblashni anglatar ekan, OAVlarda ham bu prinsip hurmat qilinishi kerak.

Aybsizlk prezumpsiyasining buzilishi asosan quyidagi holatlarda yuzaga kelishi mumkin, birinchisi OAVlarda tergov yoki sud jarayonlari davomida ayblanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini yoki ularning aybi haqida asossiz tahminlar bilan ommaga taqdim etilishi mumkin. Bu kabi holatlar hozirda keng tarqalib ketgan desak xato bo'lmaydi. Ikkinchisi esa OAVlar sud hukmini kutish o'rniga oldindan o'zlarining qarashlari orqali shaxsga nisbatan "sud hukmi" chiqarib qo'yishadi, bu hah aybsizlik prezumpsiyasining buzlishi hisoblanadi.

Aybsizlik prezupmsiyasi tamoyilini yanada mustahkamlash, kuchaytirish uchun bir qator yo'nalishlarda chora-tadbirlar ko'rish mumkin.

Birinchi navbatda bu tamoyilning ishlashini kuchaytirish uchun sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining malakasini oshirish kerak deb hisoblayman, sababi sud va huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari jinoyat-protsessual jarayonining barcha bosqichlarida ishtirok etadi, va ularning faoliyati to'g'ridan to'g'ri shaxslarning huquqlari va erkinlilariga ta'sir qiladi. Masalan, bu soha xodimlarining huquqiy bilim va ko'nikmalarini rivojlatirish yani ushbu prezumpsiyaning huquqiy asoslari va xalqaro standartlari chuqur o'rgatilishi kerak.

Ikkinchidan, jamoatchilik xabardorligini oshirish orqali ham bu qoidalarni mustahkamlash mumkin. Ommaviy axborot vositalari va boshqa kommunikatsiya vositalari orqali aholini aybsizlik prezumpsiyasi haqida xabardor qilish va tushuntirish ishlari olib borilishi, odamlarni huquqlaridan to'g'ri foydalanishini ta'minlaydi. Biroq ommaviy axborot vositalari sud jarayonlari haqida axborot berishda shaxsni aybdor deb ko'rsatishdan saqlanishlari lozim. Aybsizlik prezumpsiyasiga rioya qilishda

jurnalistlar uchun alohida qoidalarni belgilash, ularga ayblov hukmi chiqarilmaguncha shaxsni jinoyatchi sifatida ko'rsatmaslik haqida o'quv dasturlari tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, qynoqlarga qarshi kurashish va himoya choralarini kuchaytirish ham zarur hisoblanadi. Mening fikrimcha aybsizlik prezumpsiysi shaxsni sud hukmi chiqmaguncha aybsiz deb hisoblashdan tashqari, shaxsning sud jarayonida yoxud sud jarayoniga qadar bo'lgan protsessual jarayonlarda qynoqqa solinishi va unga bosim o'tkazilishini taqiqlaydi. Shu bois qynoqlarga qarshi qat'iy choralar ko'rish, huquqni muhofaza qilish organlarida proflaktik choralarini kuchaytirish, qynoqqa oid shikoyatlar kelib tushganda ochiq va darhol ko'rib chiqish tizimini joriy qilish kerak.

Fransiya aybsizlik prezupmsiyasini (*présomption d'innocence*²) ta'minlashda eng rivojlangan va o'z tajribasi bilan shuhrat qozongan davlat hisoblanadi. Fransiyada aybsizlik prezumpsiysi tamoyili bir nechta asosiy hujjalarda mustahkamlangan. Eng muhim va asosiy hujjalardan biri Fransiya Konstitutsiyasidir. Fransiya Konstitutsiyasi 1958-yil 9-apreldda qabul qilingan bo'lib, uning 9-moddasida "har bir shaxs aybdor emasligiga e'tibor beriladi" degan tamoyili mavjud³.

Shuningdek, aybsizlik prezumpsiysi Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kuchga ega bo'lgan "*Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Konvensiyasi*"da ham keltirilgan. Konvensiyaning 6-moddasiga ko'ra shunday deyiladi: "hech kim aybdor emas, toki u sud tomonidan aybdor deb topulmaguncha"⁴. Bu hujjal ham Fransiya qonunchiligi va sud amaliyotida ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Fransiyada sud va huquqni muhofaza qilish organlari aybsizlik prezumpsiyasiga qat'iy rioya qilishga intiladilar. Sud jarayonida ayblanuvchi shaxsni sud zalida qo'l kishanlari bilan ko'rsatmaslik va ommaviy axborot vositalarida ularga nisbatan hukm chiqarilmaguncha aybdor sifatida muomala qilmaslik bu tamoyilga amal qilishning muhim jihatlaridan biridir. Fransiya hukumatining maqsadi, jamiyatda sud organlariga bo'lgan ishonchni oshirish va ayblanuvchilarning huquqlarini himoya qilishdir. Bu borada, ommaviy axborot vositalarining rolini ham inobatga olish zarur, chunki noto'g'ri xabarlar va asossiz ayblovlar aybsizlik prezumpsiyasini buzishi mumkin.

XULOSA:

Umumiyl xulosa qiladigan bo'lsak, aybsizlik prezumpsiysi deganda, to'g'riroq'i sodda qilib aytganda har bir shaxsning sud tomonidan aybdor deb topulmaguncha, u aybsiz hisoblanishini tushunishimiz mumkin ekan. Bu prinsip juda ham ko'plab davlatlarda keng qo'llaniladi. Jumladan, Fransiya bu borada eng rivojlangan tajribaga ega davlatlardan biridir. Bundan tashqari boshqa davlatlar ham Germaniya, Italiya va Shvetsiya aybsizlik prezumpsiyasini mustahkamlashda samarali

² https://www.fairtrials.org/app/uploads/2022/01/Presumption-of-Innocence-Toolkit_2.pdf

³ <https://www.conseil-constitutionnel.fr/>

⁴ <https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention>

yondashuvlarga ega hisoblanadi. Bu mamlakatlar, sud jarayonlarida ayblanuvchilarni himoya qilish va jamoatchilikka to‘g‘ri ma‘lumotlar taqdim etishga qaratilgan amaliyotlar o‘rnatganlar.

O‘zbekiston ham yuqorida nomlari zikr qiangan davlar qatorida bo‘lish uchun jamoatchilik xabardorligini oshirish orqali huquqiy ongni rivojlantirish, sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining malakasini oshirish, qynoqlarga qarshi kurashish va himoya choralarini kuchaytirish hamda odil sudlovni ta’minlash orqali yuksak natijalarga erishishi mumkinligini keltirib o‘tdik.

Ushbu qadamlar, bosqichlar orqali aybsizlik prezumpsiyasini kuchaytirish nafaqat huquq tizimida, balki ijtimoiy hayotda ham adolatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi kabi davlatlar, bu tamoyilni mustahkamlsh orqali odil sudlov tizimida yangi bir bosqichga chiqishi mumkin. Bu borada O‘zbekiston Inson huquqlari bo‘yicha BMT Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘z qonunchiligini yangilashda davom etmoqda. Mamlakatda sud-huquq tizimida ochiqlik va shaffoflikni oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy qilinmoqda, bu esa sud jarayonlarini kuzatish va aybsizlik prezumpsiyasiga rioya qilish imkonini oshiradi. Bu yutuqlar O‘zbekistonda sud tizimi va huquqni muhofaza qilish organlarini yanada isloh qilish va xalqaro standartlarga mos huquqiy tizimni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”
2. “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi”
3. “Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi”
4. “Yevropa Inson huquqlari bo‘yicha Konvensiya”
5. “Fransiya Respublikasi Konstitutsiyasi”
6. Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi // -T.: TDYU nashriyoti, 2021. 248 bet
7. <https://lex.uz/docs/-111460>
8. <https://www.fairtrials.org/app/uploads>
9. <https://www.conseil-constitutionnel.fr/>
10. <https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention>